

**YASHIL IQTISODIYOT ASOSIDA RIVOJLANISHDA DUNYO
MAMLAKATLARI TAJRIBALARI VA ULARNI O‘ZBEKISTONDA
TADQIQ ETISH IMKONIYATLARI**

Xudoyorov Azizbek Avaz o‘g‘li
Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti
<https://orcid.org/009-0001-7045-4062>

Annotatsiya: Maqolada global ekologik muammolar kuchaygan davrda yashil iqtisodiyot asosida barqaror rivojlantirishga erishish bo‘yicha xorijiy mamlakatlar tajribalari AQSH, Buyuk Britaniya, Xitoy, Janubiy Koreya, Yaponiya kabi davlatlarning tajribalari tahlil qilingan va O‘zbekiston sharoitida foydalanishning ustuvor yo‘nalishlari tadqiq qilingan. O‘zbekiston iqtisodiyotini ekologiya talablari nuqtayi nazaridan qayta tashkillashtirish, shakllantirish va rivojlantirish bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Yashil iqtisodiyot, barqaror rivojlanish, atrof-muhit, ekologik barqarorlik, ekologik muammolar, qayta tiklanadigan energiya, chiqindilar, tabiiy resurslar, past uglerodli rivojlanish, iqlim o‘zgarishi, ekologiya, xalqaro tajriba, xalqaro hamkorlik.

**ОПЫТ СТРАН МИРА ПО РАЗВИТИЮ НА ОСНОВЕ ЗЕЛЕННОЙ
ЭКОНОМИКИ И ВОЗМОЖНОСТИ ЕГО ИЗУЧЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ**

Аннотация

. В статье анализируется опыт зарубежных стран, таких как США, Китай, Южная Корея, Франция, Япония, Великобритания, по достижению устойчивого развития на основе зеленой экономики в период обострения глобальных экологических проблем, а также изучаются приоритетные направления его использования в условиях Узбекистана. Представлены научно обоснованные предложения и рекомендации по реорганизации, формированию и развитию экономики Узбекистана с точки зрения экологических требований.

Ключевые слова: Зеленая экономика, устойчивое развитие, окружающая среда, экологическая устойчивость, экологические проблемы, возобновляемые источники энергии, отходы, природные ресурсы, низкоуглеродное развитие, изменение климата, экология, международный опыт, международное сотрудничество

EXPERIENCES OF COUNTRIES OF THE WORLD IN DEVELOPMENT
BASED ON GREEN ECONOMY AND OPPORTUNITIES
FOR THEIR STUDY IN UZBEKISTAN

KHUDAYAROV AZIZBEK AVAZ UGLI

Abstract

The article analyzes the experiences of foreign countries, such as the USA, China, South Korea, France, Japan, and Great Britain, in achieving sustainable development based on a green economy in a period of increasing global environmental problems, and studies the priority areas of their use in the conditions of Uzbekistan. Scientifically based proposals and recommendations are presented for the reorganization, formation, and development of the Uzbek economy from the point of view of environmental requirements.

Keywords: green economy, sustainable development, environment, environmental sustainability, environmental problems, renewable energy, waste, natural resources, low-carbon development, climate change, ecology, international experience, international cooperation.

Kirish

Hozirgi zamon jahon iqtisodiyoti rivojlanishida ekologik muammolar hududlar va mintqalarning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishida eng katta salbiy ta'sir qilib turgan muammolardan sanaladi. Mamlakatlar hududiy taraqqiyotini jadallashtirish, barqarorlashtirish uchun ekologik muammolarni bartaraf qilmasa, ularning ta'sir ko'lamini pasaytirmasa, barqaror rivojlanishga erisha olmaydi.

Jahon mamlakatlari iqtisodiyoti integratsiyalashishi kuchayib borishi, ishlab chiqarishning rivojlanishi, aholi sonining ortib borishi bilan birga atrof-muhitga jamiyat va iqtisodiyot tarmoqlari tomonidan salbiy ta'sirlar ortib boraveradi. Hozirgi kunda insoniyat atrof-muhit muhofazasi bilan bog'liq muammolar, ekologiya bilan bog'liq muammolarning muhim, hal qiluvchi jarayonlarini boshdan kechirmoqda. Agarda insoniyat atrof-muhit muhofazasi bilan bog'liq muammolarni bartaraf qilish, ularning salbiy ta'sirlarini kamaytirish uchun hozirda aniq va maqsadli harakatlarni amalga oshirib, ularning ijobiy tomonga o'zgarishiga sabab bo'luvchi choralarni ko'rmasa, bundan keyin kechga qoldirilgan har bir jarayon qaytarib bo'lmis oqibatlarga olib keladi.

Mamlakatimizda barqaror rivojlanishni ta'minlash, cheklangan, takror ishlab chiqarilmaydigan iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanishda va energiya samaradorligini oshirishda "yashil iqtisodiyot"ning rivojlanishi yetakchi o'rin egallab bormoqda. Milliy va mintaqaviy iqtisodiyotni innovatsion rivojlanish yo'liga

o'tkazishda "yashil iqtisodiyot"ning shakllanishi, rivojlanish qonuniyatlari va uni amal qilishining ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatlarini o'rganish muhim ahamiyatga ega.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

"Yevropa Ittifoqining Sharqiy hamkorlik mamlakatlarida iqtisodiyotni ekologiyalashtirish EaP GREEN) das turi" axborotida Armaniston, Belarus, Gruziya, Moldova, Ozarbayjon, Ukraina davlatlarida ishlab chiqarishning samaradorligini yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida oshirish, mamlakat tabiiy kapitalini boshqarishda, ma'muriy boshqaruvda, atrof-muhit muhofazasi siyosatida yashil iqtisodiyotni ustuvor yo'nalish sifatida qo'llashning nati jadorligi tadqiq etilgan.¹

V.A. Poxvoshev yashil iqtisodiyotning Rossiya ijtimoiy taraqqiyotidagi o'rini o'rganar ekan, yashil iqtisodiyot tamoyillarini mintaqaviy sharoitlarga moslashtirish zarurligini qayd etadi. Bu yondashuvni O'zbekistonda ham qo'llash foydali bo'lishi mumkinligini, O'zbekistondagi ekologik muhitni yaxshilashda Rossiya tajribasidan foydalanish kerakligini ta'kidlaydi²

A.M. Rodrigues yashil iqtisodiyotning barqaror o'sishga ta'siri va ekologik muammolarni bartaraf etishdagi ahamiyatini tahlil qilgan holda, ushbu modelning moliyaviy inqiroz sharoitlarida ahamiyatini alohida ta'kidlaydi³

N.N. Yashalova esa yashil iqtisodiyotning ekologik va iqtisodiy barqarorlikka erishishda tutgan o'rini o'rgangan. Uning tadqiqotida mintaqaviy sharoitda yashil ishlab chiqarishni rag'batlantirishga alohida urg'u berilgan⁴

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot davomida tizimli tahlil, statistik tahlil, qiyosiy taqqoslash, sinergetik tahlil, fanlararo yondashuv metodlaridan foydalanildi. Ayniqsa, mavzuga oid adabiyotlar va manbalarni tahlil qilishda tizimli tahlil uslubidan, xorijiy davlatlarning tajribasi tahlilida qiyosiy tahlil uslubidan foydalanildi.

Tahlil va natijalar

Yashil iqtisodiyot bu atrof muhitni muhofaza qilish, iqlim o'zgarishini kamaytirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, hamda inson farovonligini oshirishga qaratilgan iqtisodiy modeldir. Yashil iqtisodiyotning rivojlanishi uchun eng muhim ishlardan biri bu 2015-yilda Fransiyaning Parij shahrida o'tkazilgan BMT ning iqlim isishiga bag'ishlangan konferensiyada 195 mamlakat tomonidan global isish darajasini +2 C da ushlab turish siyosatini qabul qilinganligi hisoblanadi.

¹ Яшалова Н. Н. Стимулирование устойчивого эколого-экономического развития региона. Автореферат на соискание ученой степени доктора экономических наук. <https://www.prilib.ru/item/684795>. EaP GREEN dasturi". <https://unece.org/eap-green>.

² Pokhvoshev, V.A. and Lukina, A.V. (n.d.) "—Zelenaya ekonomika v sotsial'nom razvitii Rossii". 2018. 12-14-c. <https://cyberleninka.ru/article/n/zelenaya-ekonomika-v-sotsialnom-razvitii-rossii>.

³ Rodriguez, A.M. Zelenaya ekonomika v kontekste problem ustoychivogo razvitiya. 2022. 3-7-c. <https://www.dissercat.com/content/zelenaya-ekonomika-v-kontekste-problem-ustoichivogo-razvitiya>.

⁴ Yashalova, N.N. Stimulirovanie ustoychivogo ekologo-ekonomicheskogo razvitiya regiona. 2020. 8-c. <https://www.prilib.ru/item/684795>

Konferensiyada 147 ta mamlakat "yashil iqtisodiyot" rejalarini, 147 ta mamlakat tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish dasturlarini va 167 ta mamlakat energiya samaradorligini iqlim o'zgarishlariga munosib ravishda oshirish tavsiyalarini taqdim etishdi.

Xorijiy davlatlarda energiya samaradorligi ko'rsatkichlari tahlili

(1-jadval)

Mamlakat	Qayta tiklanuvchi energiya ulushi (%)	Asosiy hujjatlar dasturlar	Maqsadi
Yaponiya	25.7% (2023)	Green Growth Strategy (2050)	2050-yilgacha karbon neytrallik
Germaniya	55% (2023)	Energiewende, Klimaschutzgesetz	2045-yilgacha karbon neytrallik
Janubiy koreya	8.3% (2023)	Green New Deal (2020), 2050 Net Zero Plan	2050-yilgacha karbon neytrallik
Buyuk Britaniya	47.5% (2023)	Green Finance Strategy, Net Zero by 2050	2050-yilgacha karbon neytrallik
O'zbekiston	25–30% (2024)	Yashil iqtisodiyot strategiyasi – 2030	2030-yilgacha 40% yashil energiya ulushi

Manba: BMT ning Atrof-muhit dasturi: Yashil iqtisodiyot va Barqaror

Rivojlanish va Jahon banki statistikalari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Shvetsiyaning Lunda universiteti tadqiqotchi olimlari tomonidan sayyoramizdagi asosiy resurslarining tugab borayotganligiga oid maxsus model ishlab chiqilgan. Unga muvofiq narxlarning ko'tarilib borishi, global inqirozlar ehtimolining oshib borishi natijasida temir ishlab chiqarish hajmi 2030 yilga borib o'zining eng yuqori cho'qqisiga ko'tariladi. Xuddi shunday ikkinchi yuqori ko'tarilish 2060 yilda yana bir marotaba qayd etiladi va shundan so'ng temir resurslari defitsiti boshlanishi prognoz qilingan. Oltin qazib olishda tanqislik davri 2070-yillarda boshlanadi. Metallar jumladan, platina guruhi uchun 2020 yillar eng yuqori cho'qqi sifatida qayd etilgan bo'lsa, qo'rg'oshin, kumush, rux uchun 2030-yil prognoz qilinmoqda. 2040–2050-yillarda mis, xrom, nikel, molibden iste'moli eng yuqori cho'qqisiga chiqqanidan keyin kamayish sodir bo'ladi. Fosfat ishlab chiqarishning eng yuqori darajasi 2010 yilda sodir bo'lgan bo'lib, fosfor yetishmovchiligi 2040-yilda boshlanishi mumkin ⁵

⁵ И. М. Потравный, А. Л. Новоселов, И. Б. Генгут Экономика региона. — 2016. — Т.12, вып. 2. — С. 438-450 doi 10.17059/2016-2-10 УДК 304.2 : 338.622 JEL: Q56

Dunyo amaliyotida yashil iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha xorijiy tajribadan foydalanish usullari ⁶

(2-jadval)

t/r	Yashil iqtisodiyotni rivojlantirish usullari	Usullardan kutilayotgan natija
1	O'quv safarlari va almashinuvlar	Yashil iqtisodiyot tashabbuslarini muvaffaqiyatli amalga oshirgan mamlakatlarga tashrif buyurish uchun siyosatchilar, hukumat amaldorlari va sanoat vakillari uchun o'quv safarlari, seminarlar va almashinuv dasturlarini tashkil qilish muhimdir. Bu ularga eng yaxshi amaliyotlar, siyosat va texnologiyalar haqida bevosita o'rganish imkonini beradi.
2	Xalqaro hamkorlik	Yashil iqtisodiyotni rivojlantirishga ixtisoslashgan xorijiy hukumatlar, xalqaro tashkilotlar va nodavlat notijorat tashkilotlari (NNT) bilan hamkorlik va hamkorlik shartnomalarini o'rnatish. Ushbu hamkorliklar bilim almashish, texnik yordam va salohiyatni oshirishga yordam beradi.
3	Texnologiyalar transferi	Texnologiyalarni transfer qilish bo'yicha shartnomalar, qo'shma korxonalar va litsenziyalash kelishuvlari orqali xorijiy texnologiyalar, tajriba va nou-xaularga kirish. Mahalliy ilovalar uchun yashil texnologiyalarni qabul qilish va moslashtirish uchun xorijiy kompaniyalar va tadqiqot institutlari bilan hamkorlik qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Germaniyada 2021-yilga kelib “yashil” energetikaning ulushi 41 % ga, 2022-yilda esa 47 % ga yetgan. 2022-yilda umumiy elektr energiyasi iste'moli ulushida esa bu ko'rsatkich 49 % ni tashkil etgan¹. 2023-yilda Germaniya energetikasi tarixida ilk marotaba “yashil” energetikaning ulushi 50 % dan oshib ketdi. 2023-yilning may hamda iyul oylarida elektr energiyasidagi ulush hattoki 57 hamda 59 % gacha ko'tarildi. Umumiy hisobda 2023-yilda Germaniyada 267 milliard kilovatt soat elektr energiyasi ishlab chiqarilgan. Bu borada shamol generatorlarining ulushi 113,5 milliard kilovatt soat ko'rsatkichni qayd etgan⁷

Amerika Qo'shma Shtatlarida yashil iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari sifatida muqobil energiyani rivojlantirishni tanladi. 2030 yilga kelib, quyosh qurilmalari mamlakat energiya iste'molining 65 foizini va issiqlikning 35 foizini ishlab chiqaradi. AQSH davlat organlariga ushbu maqsadga erishish uchun mustaqil ravishda aniq chora-tadbirlar ishlab chiqish uchun ikki yil (2014 yildan boshlab) berildi. Prezident Jou Bayden kelgusi 10 yil ichida nafaqat atrof-muhitni

⁶ <https://7universum.com/ru/tech/archive/item/15805>

⁷ <https://www.dw.com/ru/v-2023-godu-vie-vpervye-obespecili-svyse-50-elektroenergii-v-frg/a-67758092>

yaxshilash, balki 5 milliongacha ish o'rni yaratish uchun toza texnologiyalarga sarmoya kiritish rejasini e'lon qildi.

AQSHda yashil iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida qabul qilingan me'yoriy hujjatlar⁸

(3-jadval)

t/r	Meyoriy hujjat nomi	Maqsadi	Qabul qilingan sana
1	Amerikaning toza energiya va xavfsizlik to'g'risidagi qonuni	Chegara va savdo tizimini joriy etish orqali issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirishga qaratilgan	2009-yil
2	Energiya mustaqilligi va xavfsizligi to'g'risidagi qonun	Turli xildagi yoritish, isitish va sovitish uskunalari uchun energiya samaradorligi standartlarini belgilaydi	2007-yil
3	Amerika tiklanish va qayta investitsiya qonuni	Shamol va quyosh, ilg'or akkumulyator texnologiyalari va aqlli tarmoq tashabbuslari kabi qayta tiklanadigan energiya loyihalariga mablag' ajratadi.	2009-yil
4	Toza energiya rejasini:	Elektr stantsiyalaridan karbonat angidrid chiqindilarini kamaytirishga qaratilgan.	2015-yil

Yaponiyada asosan energiya manbalarini diversifikatsiya qilishga katta e'tibor qaratiladi. Ayniqsa, quyosh, shamol va bioenergiya kabi qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirishga urg'u beriladi. Bu mamlakatda qayta ishlash va chiqindilarni qayta ishlash bo'yicha tizimi juda samarali. Mamlakatda „Zero Waste“ (nol chiqindi) konsepsiyasi keng yoyilgan bo'lib, sanoat va aholisining chiqindilarni kamaytirishga va qayta ishlashga bo'lgan majburiyati katta. Yaponiyada biologik xilma-xillikni saqlash, organik mahsulotlar yetishtirish va ekologik toza qishloq xo'jaligi usullarini joriy etish orqali yashil iqtisodiyotga hissa qo'shilyapti.

Buyuk Britaniya yashil iqtisodiyoti 2023-yilda 9 % ga o'sib, qayta tiklanuvchi energiya manbalari, elektromobillar ishlab chiqarish hamda yangi texnologiyalarni ishlab chiqish kabi yo'nalishlarni o'zida birlashtirgan tarmoq sifatida mamlakat byudjetiga 74 milliard funt sterling olib kelgan. Yana bir e'tiborli jihat, sohada 765 ming kishi ish o'rni bilan ta'minlangan va ularning o'rtacha oylik ish haqqi 10 ming funt sterlingni tashkil etgan, qo'shimchasiga faoliyat samaradorligi boshqa sohalarda band insonlarga nisbatan 50 % samaraliroq ekanligi aniqlangan. Britaniya hukumati 2035-yilga kelib quyosh panellaridan 75 gigavatt energiya olishni hamda issiqlik

⁸ [Environmental Assessment Methods// https://www.willmottidixon.co.uk/asset/10424/download](https://www.willmottidixon.co.uk/asset/10424/download)

nasoslari sonini 60 mingga yetkazishni, 2050 yilga borib uglerod neytralligiga erishishni maqsad qilgan⁹

Buyuk Britaniyada yashil iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida qabul qilingan me'yoriy hujjatlar¹⁰

(4-jadval)

t/r	Meyoriy hujjat nomi	Maqsadi	Qabul qilingan sana
1	Iqlim o'zgarishi to'g'risidagi qonun	2050-yilga kelib 1990-yil darajasiga nisbatan issiqxona gazlari chiqindilarini kamida 80 foizga qisqarishga erishishni maqsad qilib qo'ygan	2008-yil
2	Qayta tiklanadigan energiya bo'yicha direktiva	Energiyaning umumiy tarkibidagi qayta tiklanadigan energiya ulushi bo'yicha maqsadlarni belgilaydi.	2009-yil
3	Energiya to'g'risidagi qonun	Yashil infratuzilma loyihalarini moliyalashtirishni ta'minlaydigan Yashil investitsiya bankini (hozirda Yashil investitsiya guruhi deb ataladi) tashkil etishni joriy qildi.	2011-yil
4	Energiya samaradorligi (Angliya va Uels) qoidalari	Ushbu qoida xususiy ijaraga olingan ob'ektlar uchun energiya samaradorligining minimal standartlarini belgilaydi	2015-yil

Xitoyda 2022-yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushi 50 % ga yetdi va 2023-yilda bu ko'rsatkich 53 % dan oshdi. 2023-yilda umumiy quvvati 210 gigavattli quyosh elektrostansiyalari ishga tushirildi. Xitoyning yangi ishga tushirilishi rejalashtirilayotgan quyosh, shamol, gidro hamda atom quvatlari har yili o'rtacha 423 teravatt soatlik energiya ishlab chiqarishi prognoz qilinmoqda. Misol uchun mamlakat shimoli g'arbidagi Gansu provinsiyasining o'zida 20 gigavattlik Syusyuan shamol elektrostansiyasini qurish rejalashtirilmoqda. Umumiy olgan Xitoyning cho'l mintaqalarida jami 450 gigavatt quvvatga ega qayta tiklanuvchi energiya manbalari bunyod etilmoqda. 2023 yilda toza energetika mamlakat iqtisodiyotiga 1,6 trillion dollar olib keldi. Bu ko'rsatkich 2022-yil bilan solishtirganda 30 % ga ko'p demakdir¹¹

Koreya Respublikasining “yashil iqtisodiyot”ga o'tish tashabbusi 2008-2013 yillarda mamlakat Prezidenti Li men Bak tomonidan ilgari surilgan. 2009 yilda issiqxona gazlari emissiyasini 2030 yilga qadar 30%ga qisqartirish rejasi qabul qilindi va 2009-2012 yillarda “yashil” tashabbus maqsadlari uchun mamlakat yalpi ichki mahsulotining 3%i miqdorida mablag' ajratildi. “Raqamli transformatsiyaning bosh

⁹ <https://afisha.london/2023/08/18/bum-zelyonoj-energii-pochemu-britantsy-perehodyat-na-solnechnye-paneli-i-teplovye-nasosy/>

¹⁰ Environmental Assessment Methods// <https://www.willmottidixon.co.uk/asset/10424/download>

¹¹ <https://www.ridus.ru/zelenaya-energetika-vytyanula-ekonomiku-kitaya-v-2023-godu-426869.html>

rejasi” (Digital New Deal) ning muhim tarkibiy qismi “Yashil o'zgartirishga qaratilgan yangi yo'nalish” (Green New Deal) hisoblanib, atmosferaga zararli moddalar chiqarilishi nol miqdorga tushirishni maqsad qilgan. Barcha moliyaviy ajratmalarning deyarli yarmi 73,4 trln von, shu jumladan, davlat byudjetidan 42,2 trln von ushbu sohaga yo'naltirilgan. Xususan, uning doirasida 8 ta yirik milliy loyihalarni realizatsiya qilish hisobiga 659 mingta yangi ish o'rni yaratish ko'zda tutilgan. 2023-yilga borib elektromobillar ishlab chiqarish quvvatini 1,13 million donaga yetkazish rejalashtirilmoqda¹²

Qozog'iston mamlakatida “yashil” iqtisodiyotga o'tishning 3 bosqichli tizimi ishlab chiqilgan: Birinchi bosqichda 2013-yildan 2020-yilgacha hukumat resurslardan foydalanishni optimallashtirishga asosiy urg'uni qaratib, tabiatni muhofaza qilish va “yashil” infratuzilmani yaratishga e'tibor beradi.

Ikkinchi bosqichda – 2020-yildan 2030-yilgacha – shakllantirilgan “yashil” infratuzilma asosida suvdan oqilona foydalanish, qayta tiklanuvchi energiya texnologiyalarini rivojlantirish hamda keng joriy etishni rag'batlantirishga qaratilgan milliy iqtisodiyotga o'tish, shuningdek, yuqori energiya samaradorligi standartlariga asoslangan obyektlarni bunyod etish ko'zda tutilgan.

Uchinchi bosqichda – 2030-yildan 2050-yilgacha milliy iqtisodiyot "uchinchi sanoat inqilobi" deb ataladigan tamoyillarga o'tadi. Bunda tabiiy resurslardan ularning yangilanishi va barqarorligini hisobga olgan holda foydalanishni nazarda tutadi.

Xalqaro energetika agentligining ma'lumotlariga ko'ra 2050-yilga kelib ishlab chiqilayotgan past uglerodli energetika texnologiyalarining deyarli yarmi prototiplar holiga kelib ulguradi va dastlabki amaliy sinov jarayonlarini boshlaydi. 2070-yilga borib 30 foiz texnologiyalar ustida ekspulatatziyaga berilishi uchun davomiy ish olib borish hamda yangidan yangi investitsiya resurslarini yo'naltirishga tog'ri keladi¹³

Ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda qayta tiklanuvchi energiya manbalarining umumiy potentsiali 51 milliard tonna neft ekvivalentiga teng bo'lib, texnik imkoniyatlari esa 179 million tonna neft ekvivalentini tashkil etadi. Ushbu ko'rsatkich mamlakat bo'yicha yiliga iste'mol qilinadigan energiya hajmidan qariyb 2,5 barobarga ko'p. Shuningdek, qayta tiklanuvchi energiyadan foydalanish 447 million tonna uglerod oksidi, oltingugurt birikmalari, azot oksidlari va boshqa ifloslantiruvchi moddalarning hamda parnik gazlarning atmosfera havosiga tashlanishining oldini oladi. Qayta tiklanuvchi energiya manbalarining elektr energiyasini ishlab chiqarish umumiy hajmidagi ulushi qariyb 10 foizdan ziyodni tashkil etmoqda. Bu borada

¹² В.Д. Андрианов. Республика Корея на пути построения зеленой экономики. Вестн. Моск. ун-та. Сер. 13. Востоковедение. 2023. Т. 67, № 3. С. 161–179 Lomonosov Oriental Studies Journal, 2023, Vol. 67, No. 3, pp. 161–179 (In Russ.)

¹³ О международном опыте разработки и внедрения принципов, мер и механизмов «зелёной» экономики. Аналитический доклад «О международном опыте разработки и внедрения принципов, мер и механизмов «зелёной» экономики подготовлен в рамках реализации в 2021 г. пунктов 8.3.4., 8.3.5., 8.3.6., 8.3.7. Плана мероприятий по реализации Стратегических направлений развития евразийской интеграции до 2025 г.

O'zbekiston 2030 yilga qadar qayta tiklanuvchi energiya manbalari quvvatini 27 gigavattga yetkazib, elektr energiyasi ishlab chiqarish umumiy hajmining kamida 40 foiziga olib chiqishni maqsad qilib oldi. Bu har yili 25 milliard kub metr tabiiy gazni iqtisod qilish, atmosferaga zararli tashlanmalarni 34 million tonnaga qisqartirishga xizmat qiladi¹⁴

Xorijiy tajribaga tayangan holda O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni shakllantirish yo'nalishlari

(5-jadval)

t/r	Mamlakat	Xalqaro tajriba	Erishilgan natija
1	Germaniya tajribasi	Energiyaga o'tish	Qayta tiklanadigan energiya manbalariga o'tish va atom energetikasini bosqichma-bosqich to'xtatish tajribasidan o'rganishi mumkin. Siyosatni rag'batlantirish, qo'shimcha tariflar va tadqiqot va ishlanmalarga sarmoya kiritish orqali Germaniya qayta tiklanadigan energiya manbalarini, xususan, quyosh va shamol energiyasini qabul qilish bo'yicha jahon yetakchisiga aylandi.
2	Kosta-Rika tajribasi	Qayta tiklanadigan energiyaga bo'lgan majburiyati	Elektr energiyasining deyarli 100% qismi qayta tiklanadigan manbalardan ishlab chiqariladi. Kosta-Rika gidroenergetika, geotermal, quyosh va shamol energiyasiga sarmoya kiritib, mamlakatlar barqarorlikka qanday ustuvor ahamiyat berishlari va energiya mustaqilligiga erishishlari uchun namuna bo'lib xizmat qiladi.
3	Singapur tajribasi	Yashil qurilish tashabbuslari	Singapur qat'iy qurilish me'yorlarini, yashil sertifikatlash dasturlarini va yashil binolarni loyihalash uchun rag'batlantirishni amalga oshirib, resurslarni tejash va ekologik barqarorlikka hissa qo'shdi.
4	Niderlandiya tajribasi	Aylana iqtisodiyot strategiyasi	Niderlandiya chiqindilarni ishlab chiqarishni minimallashtirish va resurslar samaradorligini maksimal darajada oshirishga qaratilgan aylanma iqtisodiyot tamoyillarini qabul qildi.

Xulosa

Jahon tajribasi ko'rsatmoqdaki, yashil iqtisodiyot hududiy va makroiqtisodiy rivojlanishni ta'minlash bilan birga aholi farovonligini oshishiga, tabiiy muhit va aholi

¹⁴ <https://uza.uz/oz/posts/boriy-alixonov-iqtisodiyotning-eski-modelini-yengib-yashil-taraqqiyotga-otish-vaqti-keldi-570311>

salomatligining yaxshilanishiga olib keladi. Rivojlangan mamlakatlar tajribasidan ma'lum bo'ladiki, yashil iqtisodiyotni dastlabki rivojlantirish jarayonida ustuvor tarmoqlarga e'tibor qaratish va ularning imkoniyatlarini kengaytirgan holda, iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarini ham yashillashtirib borish samarali sanaladi.

Bugungi kundagi dolzarb ekologik xavflarni inobatga olib, resurslarni boshqarish tizimini qayta ko'rib chiqish, energiya manbalaridan oqilona foydalanish, texnologik modernizatsiyani jadallashtirish rivojlanishning o'rta va uzoq istiqboldagi tempini belgilab beradi. Xorij mamlakatlarining yashil energetika tizimini rivojlantirib borayotganligi, energiya ishlab chiqarish hajmlarining misli ko'rilmagan darajada ulkan ekanligi hamda erishilayotgan yutuqlar Yevropa mamlakatlari modeli hamda janubiy-sharqiy Osiyo mamlakatlari modellarining milliy "yashil" iqtisodiyot modeliga mavjud imkoniyatlar ko'lamidan kelib chiqib joriy etilishi maqsadga muvofiq. Fikrimizcha, "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirishda quyidagi takliflar o'rinli bo'ladi:

1. Iqlim o'zgarishlarining qayta tiklanuvchi energiya manbalariga ta'sirini o'rganish hamda yaqin va uzoq istiqboldagi natijalarni prognozlash.
2. Atrof-muhit muhofazasiga oid chora tadbirlarning zamonaviy mexanizmlarini ishlab chiqish va joriy etish. 1 Adabiyotlarni o'rganish natijasida muallif tomonidan tuzilgan
3. Qayta tiklanuvchi energiya manbalari hisobidan olingan energiyani saqlash texnologiyalarini rivojlantirish.
4. Elektromobillar ishlab chiqarishni joriy etish, texnologiya va ehtiyot qismlarni mahalliyashtirish.
5. Sug'orish texnologiyalarini zamonaviylashtirishni jadallashtirish.
6. "yashil" iqtisodiy hududlar reytingini joriy etish va yuqori ko'rsatkichli hududlarni rag'batlantirish chora-tadbirlari rejasini ishlab chiqish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvar kunidagi PF-16-son "O'zbekiston-2030" strategiyasini "Atrof muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrda "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining Yashil iqtisodiyotga o'tishga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PQ 436-son qarori <https://lex.uz/ru/docs/-6303230>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2019-2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "Yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 04.10.2019- yildagi PQ-4477- sonli qarori. <https://lex.uz/docs/-4539502>
4. Вахобов А. В., Хажибакиев Ш. Х. : "Яшил иқтисодиёт" дарслик 196-бет.

5. A. V. Vahobov Sh. X. Hojiboqiyev. Qayta tiklanadigan energiya iste'molining tarkibi va rivojlanish istiqbollari. Aca demic Journal of Digital Economics and Stability (ISSN 2697-2212) <https://economics.academicjournal.io/index.php/economics/article/view/135>.

6. В. А. Похвощев, А. В. Лукина. “Зеленая экономика” в социальном развитии России. <https://cyberleninka.ru/article/n/zelenaya-ekonomika-v-sotsialnom-razviti-rossii>.

7. М. М. Давлетова. Формирование и развитие “зеленой” экономики в условиях стран Центрально-Азиатского региона. <https://tnu.tj/avtorefi/avtorefDavlyatovaMM.pdf>.

8. Яшалова Н. Н. Стимулирование устойчивого эколого-экономического развития региона. Автореферат на соискание ученой степени доктора экономических наук. <https://www.prilib.ru/item/684795>.

9. EaP GREEN dasturi”. <https://unece.org/eap-green>.

10. Подгорный В., Шуленбаева Ф. А. Использование “зеленой экономики” для устойчивого развития сельского хозяйства Казахстана <https://ecogofond.kz/wp-content/uploads/2022/08/ispolzovanie-zelenoj-jekonomiki-dlja-us-tojchivogo.pdf>.

11. D. Sh. Yavmutov, K. S. Karimova. O‘zbekiston iqtisodiyotida “yashil iqtisodiyot” tamoyillarini joriy qilish masalalari. Международный научно-образовательный электронный журнал “Образование и наука в XXI веке”. Выпуск №26 (том 7) (май, 2022). – С. 495-502. <https://www.mpcareer.ru/oinv21veke3>.

12. D. Sh. Yavmutov, S. Burxonov. O‘zbekistonda “yashil” iqtisodiyotga o‘tish: istiqbol yo‘nalishlar va ustuvor vazifalar. Международный научно-образовательный электронный журнал “Образование науки и инновационные идеи в мире”. №10, Часть-2, декабрь, 2022. –Б. 159-168.